






## 2020- yilning yanvar-sentabr oylari uchun Qashqadaryo viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida jami 3684,2 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **101,1 %** ni tashkil etdi.

### qurilish ishlari hajmining tarkibi


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

2020- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3369 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 268 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **6,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **70,3 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **27,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **8,3 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **10,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **21,4 %**) o'sishidir.



**Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.10.2019-yil	01.10.2020-yil	
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3101</b>	<b>3369</b>	<b>108,6</b>
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi	818	882	107,8
Shahrisabz	132	140	106,1
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	137	147	107,3
Dehqonobod	140	149	106,4
Qamashi	169	181	107,1
Qarshi	355	383	107,9
Koson	253	271	107,1
Kitob	125	136	108,8
Mirishkor	73	83	113,7
Muborak	193	195	101,0
Nishon	121	137	113,2
Kasbi	134	153	114,2
Chiroqchi	171	198	115,8
Shahrisabz	117	122	104,3
Yakkabog'	163	192	117,8


**Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan  
qurilish korxonalari soni,  
01.10.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qarshi sh.(26,1%), Qarshi (11,4%) va Chiroqchi (5,9%) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **460,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **76,0 %** ga bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **3,7%** punktga kamayib, **12,5%** ni tashkil etdi.

**2020- yilning yanvar-sentabr oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Shahrizabz shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **31,1%** i yoki 2019- yilning yanvar-sentabr oyiga nisbatan **92,9%**), G'uzor (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **23,4%** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **13,3** marta), va Koson tumanlari (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **22,5%** i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **37,7%** ) ga to'g'ri keldi.




### Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarini bajaragan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **62,9 %** to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-sentabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,8%** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **106,9 %**ni tashkil etgan holda




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **24,6 %** ni tashkil etdi yoki **904,4 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan **104,1 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
Norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **197,4** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3486,8** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,4 %** va **94,6 %** tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**Hududlar kesimida qurilish ishlari.  
(2020- yil yanvar-sentabr oylarida)**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	<b>Jami qurilish ishlari hajmida hududlarning ulushi % da</b>
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	3684,2	101,1	100,0
<i>shaharlar:</i>			
<b>Qarshi</b>	906,9	102,2	24,6
<b>Shahrisabz</b>	210,7	101,1	5,7
<i>tumanlar:</i>			
<b>G'uzor</b>	435	100,8	11,8
<b>Dehqonobod</b>	106,7	101,2	2,9
<b>Qamashi</b>	109,5	100,6	3,0
<b>Qarshi</b>	328,7	101,1	8,9
<b>Koson</b>	344,7	100,7	9,4
<b>Kitob</b>	219,5	100,9	6,0
<b>Mirishkor</b>	78,1	100,4	2,1
<b>Muborak</b>	168,6	101,0	4,6
<b>Nishon</b>	144,4	100,7	3,9
<b>Kasbi</b>	95,9	100,4	2,6
<b>Chiroqchi</b>	278,4	100,0	7,6
<b>Shahrisabz</b>	97,3	101,3	2,6
<b>Yakkabog'</b>	159,8	100,3	4,3




**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi  
2020- yil yanvar-sentabr**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **62,6 %** i yoki **2304,8** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **218,4** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **9,5 %** ni tashkil etdi


Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1277,2** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **55,4 %** ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **809,2** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **35,1 %** ni tashkil etdi.




**Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari**

*ulushi, % da*



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

2020-yilning yanvar- sentabr oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari, mlrd.so'm.



**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Qarshi sh. (786,4mlrd. so'm), G'uzor (381,4mlrd. so'm), Koson (302,8 mlrd. so'm) , Qarshi (287,1mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi  
Tel.: 75 221-32-47